

## TEXNOLOGIYA FANIDA SAYOHAT DARSLARINI TASHKILLASHTIRISH

*Navoiy viloyati Nurota tumanidagi*

*19-maktabining Boshlang'ich sinf*

*Texnologiya fani o'qituvchisi*

***Po'latova Aziza***

***Annotatsiya:*** *Inson dunyoga kelar ekan, ilm olishga, hunar egallashga harakat qiladi. Hunar egallagan inson hech qachon xor bo'lmaydi. Hunar inson uchun butmas tuganmas xazina hisoblanadi. Hunar, ilm egallashning bosh o'chog'i oila hisoblanadi. Oilada ota-onaning o'rni, qiziqishi, xohishiga ko'ra farzandi biror bir kasb, hunar egallashi uchun zamin yaratadi. Shu yo'nalish va qiziqish asosida o'quvchilar o'zlari tanlagan kasb-hunar ilm olishga intiladi. O'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishini tarbiyalashda insoniyat mehnat faoliyati tarixini o'rgatuvchi omillarga tayanib, o'quvchilarni kelajakda to'g'ri kasb tanlashlariga ulkan zamin yaratilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi.*

***Kalit so'zlar:*** *texnologiya, sayohat darslari, kasblar, sataroshlik, kosiblik, chilangarlik, duradgorlik.*

Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmay, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishishdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni talabalarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, shuningdek, talabalar foliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma hamda malakalar darajasini baholash o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat hamda ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi. Fan-texnika shiddat bilan rivojlanib borayotgan bir paytda o'quvchi yoshlarni kasbga yo'naltirish amaliyotchi psixologlar, fan o'qituvchilari va sinf rahbarlari oldida

turgan eng muhim vazifalardan biridir. Bu vazifa har bir pedagoglar uchun katta mahorat, kuch va bilim shu bilan birga kasbga yo‘naltirish borasida o‘ziga xos targ‘ibotchilik mas‘uliyatini ham talab qiladi. Kasblar xilma-xil. Har bir inson oiladan, qobiliyatidan kelib chiqqan holda biror bir kasbga qiziqadi. O‘quvchilarni kasbga yo‘naltirishda ota-onaning, sinf rahbari va fan o‘qituvchilarining o‘rni va vazifasi mavjud. O‘quvchilarni ongli ravishda kasb tanlashlar bo‘yicha olib boradigan ishi o‘quv-tarbiya jarayonining tarkibiy qismi hisoblanadi. Ushbu mas‘uliyatli ishda texnologiya fani o‘qituvchilarining ham o‘rni borligini alohida ta’kidlab o‘tish lozim. Kasb tanlash ishini olib borishdagi asosiy maqsad o‘quvchilarning kasb tanlash bo‘yicha to‘g‘ri tanlovga erishishdan iboratdir. Zero, “To‘g‘ri tanlangan kasb – muvaffaqiyat kalitidir” deb bejiz aytilmagan. Texnologiya fani bo‘yicha o‘quvchilarni kasbga yo‘naltirish turli usullarda olib borilishi mumkin. O‘quvchilalar ishtirokida sayohat darslarini tashkil qilish samarali usul bo‘lib, bunday darslarda o‘quvchilar ishlab chiqarish jarayonini bevosita ko‘rib, xulosa chiqarish imkoniyatiga ega bo‘ladilar. Tumandagi, shahar yoki viloyatlardagi ishlab chiqarish korxonasi yoki zavodlarga olib borish, kasb tanlashga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi. Sartaroshlik, kosibchilik, maxsido‘zlik, etikdo‘zlik, mashinasozlik, duradgorlik, chilangarlik kabi ustaxonalarga olib borish ham o‘g‘il bolalarda qiziqish uyg‘otadi. Xalqimizda: “Bir yigitga yetmish hunar oz” deya bejizga aytilmagan. O‘quvchilarning qiziqishi va xohish istaklariga ko‘ra “Sayohat darslari” ni har chorakda maktab ma‘muriyati va ota-onalar bilan uyushgan holda tashkillab, o‘quvchilarini xususiy korxonalariga, o‘quv markazlariga, kasb-hunar kollejlari olib borilmoqda. Qilingan sayohat davomida o‘quvchilar bevosita korxonasi ish faoliyati ko‘rib, turli kasb-hunar egalari va ularning ish faoliyati bilan bevosita tanishadilar. Zamonaviy ta‘lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning asosiy vazifalaridan biri – har bir darsni zamon va kelajak talabi asosida tashkil etishdir.

Dars – muqaddas! O‘quvchilarni dunyoqarashi keng, tafakkuri teran, yuksak salohiyatli, yuqori saviyali bo‘lishida maktabdek ulug‘ maskanning o‘rni beqiyos.

Bu jarayonni doimiy ravishda o‘tmish tajribasi va zamonaviy taraqqiyot talabi bilan uyg‘un holda, doimiy takomillashtirib borish o‘qituvchi uchun muhim vazifalardan biridir. Chunki, “Yoshlikda olingan bilim, toshga o‘yilgan naqshdir” degan qimmatli naql bor dono xalqimizda. Sharafli kasblarning eng sharaflisi bo‘lgan o‘qituvchi kasbiga munosib bo‘laylik.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Karimov I.A. O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda.- T.: O‘zbekiston, 2000.
2. Avliyoqulov N.X., Musaeva N. Pedagogik texnologiyalar. Toshkent-2008.
3. Avliyoqulov N.X. Zamonaviy o‘qitish texnologiyalari – Toshkent, 2001.
4. “Ustozlar uchun” jurnallari.
5. S.Hasanov “O‘rta Osiyo mutafakkirlari mehnat tarbiyasi haqida”.T.1996-yil yil
6. R.A.Mavlonova, Goroxova, Ogluzdina O “Mehnat ta’lim metodikasi” T., “O‘qituvchi” 1986 yil1